

МУГАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 6/7 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редакция аъзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ

Нагмет АЙЫМБЕТОВ

Байрамбай ОТЕМУРАТОВ

Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ

Алишер АЛЛАМУРАТОВ

Дилшодхўжа АЙТБАЕВ

Тўлкин АЛЛАЁРОВ

Умида БАҲАДИРОВА

Фархад БАБАШЕВ

Аскар ДЖУМАШЕВ

Гўлшара ЖУМАШЕВА

Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ

Аскарбай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ

Бахтиёр РАХИМОВ

Арзы ПАЗЫЛОВ

Барлықбай ПРЕНОВ

Қаҳҳор ТУРСУНОВ

Тажибай УТЕБАЕВ

Саодат ТОШТЕМИРОВА

Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ

Ризамат ШОДИЕВ

Зафар ЧОРШАНИЕВ

Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ

Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы

Халық билимлендириў

Министрлиги, ӨЗПНИИ

Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы

Министрлер Кабинети

жанындағы Жоқарғы

Аттестация Комиссиясы

Президиумының 25.10.2007

жыл (№138) қарары менен

дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хэм хабар агентлиги тәрешинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды №01-044-санлы гуўалық берилген.

**Мәнизил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00**

**e-mail: uznipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға муўия қайтарылмайды, журналда жарыяланган мақалалардан алынган үзінділер «Мугаллим хэм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилюўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалаларда келтирилген маълуматларға автор муўиякер.

МАЗМУН

ТИЛ ҲАМ ЭДЕБИЯТ

Бабаева Ш.Б. Метод моделирования - прогнатический аспект в лингвистике.....	3
--	---

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Norliyev A. Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limning umumnazariy masalalari va o'quvchilarda intellektual anglash malakalarini shakllantirish	10
Pardayeva K.Z., Zamonova Sh.S. Bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	14
Sayfullaev G.M., Sattorova D., Xaitova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy bilimlar haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning uslubiy asoslari	17
Ibrohimova M.F. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda grafik va jadval ko'rinishidagi topshiriqlardan foydalanish	21
Olloqova O'.M. O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.....	24
Qurbonova Sh.N. Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga intensiv ta'limni tashkil etish.....	29
Yusufzoda Sh.Y. Alifbe davrida yozuv texnikasini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	34
Жаббарова А.Ш. Бошланғич синфларда бадий асар эпизодлари масаласи ва эстетик таҳлил методлари.....	38
Пўлотова Ю. Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларида ахборот-ресурслар интеграциясини таъминлашда ўқитувчи компетентлиги	41
Хайруллаева Д.Н. Методика обучения примерам этнопедагогике на уроках родного языка и читательской грамотности в 1-2-х классах	47
Пўлотова Ю. Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларида ахборот-ресурслар интеграцияси методик муаммо сифатида	51
Тошпулатова Н. Илмий дунёкарашни шакллантириш ва ўқувчиларни ақлий тарбиялаш (аниқ ва табиий фанлар мисолида)	57
Самиев А.С. Ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиясини такомиллаштиришда ҳадис намуналаридан фойдаланиш.....	62
Салохитдинова Н.М. Бошланғич синфларда интеграциялашган таълимни такомиллаштириш технологияси.....	68
Самиев А.С. Ҳадис маънавият ва ахлоқ.....	73
Имонова М.Б. Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шаклланишига оиланинг таъсири.....	79
Джуракулова А.Х., Холикмуродова Д.Х. Бошланғич синф ўқувчиларнинг коммуникатив қобилиятларини шакллантиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари.....	82
Xidirova M.M. O'quvchi-yoshlarning ma'naviy tafakkurini shakllantirishda oila va mahallaning o'rni.....	86
Yorboboyeva I.B. O'smir yoshdagi o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari.....	91
Kadirova D., Abdullayeva D. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashining nazariy asoslari.....	95
Xoliyorova D.N. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga doir ilmiy-nazariy qarash.....	101

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Qosimov F.M., Qosimova M.M. Arifmetik masalalarni yechishda tavsiya etiladigan ilmiy-usuliy mulohazalar.....	104
Умарзода Ш.А. “Алгоритмик тиллар ва дастурлаш асослари” фанини ўқитишда замонавий технологиялардан фойдаланиш.....	109
Абдуқодиров Ж.Б. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини физика фани оптика бўлимига доир ностандарт масалаларнинг мазмун-моҳияти билан таништириш	112

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Jo‘rayeva M.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonini rivojlanishi, tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatlarini rivojlantirish	117
Xolmirzayeva Sh.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida steam ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali bolalarda ijodiy faollikni rivojlantirish	120
Tursoatova G.T. Syujetli rolli o'yinlar orqali maktabgacha o'rta yosh guruhi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish	124
Xurramova S.A. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni musiqa yordamida ma'naviy va axloqiy sifatlarini rivojlantirish yo'llari.....	127
Payg'amova J.T. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini o'stirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	131
Boymurodova S.E. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi	134
Jo‘rayeva N.Z. Maktabda va oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirish	140
Нигматуллаева М.И. Катта ва тайёрлов гуруҳларда коммуникатив ўйинларни ташкил этиш орқали мулоқот кўникмасини шакллантириш	145
Хайруллаева Ш.А. Дидактик ўйинлар орқали болаларни мустақил фикрлашга ўргатишдаги методик имкониятлар.....	151
Пардаева Р.Э. Мактабгача ёшдаги болалар мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий психологик хусусиятлари.....	156
Ramatjonova G.B. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ota-onalarning mashg'ulotlar orqali pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish	162
Samadova Y.T. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiylashtirishning ta'limdagi o'rni va roli	166

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Махмудова М.Қ. Ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилишда олимпия таълимининг аҳамияти.....	170
Вахриев J.E. Yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish metodlari va ularning mazmuni	175



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

ARIFMETIK MASALALARNI YECHISHDA TAVSIYA ETILADIGAN ILMIY-USULIY MULOHAZALAR

F.M.Qosimov

*Pedagogika instituti. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
metodikasi kafedrası dotsenti*

M.M.Qosimova

Bux DU. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti

Kalit so`zlar: *masala, arifmetik masala, arifmetik amal, misol, topshiriq.*

Ключевые слова: *задача, арифметическая задача, арифметика, пример, задание.*

Keywords: *matter, arithmetical task, arithmetical action, example, task.*

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida integratsiyalashuvi, fan- texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimida, jumladan matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Milliy dastur talablariga mos kreativ fikrlay oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun fan asoslarini chuqur o'rgatish muhimdir.

Arifmetik masalalar-boshlang'ich matematika kursining asosiy tushnuchalaridan biri bo'lib, 1-4 sinf kursida juda ko'p uchraydi.

Boshlang'ich sinflarda arifmetik masalaning ahamiyati, mohiyati to'g'risida ko'p gapirilgan:

- a) arifmetik masala o'quvchilarga arifmetik amallarning ma'nosini chuqur tushuntirishga, amallar xossalari mohiyatiga to'la yetishiga ko'maklashadi;
- b) o'quvchilar tafakkurini hayotiy faktlar bilan boyitadi, chunki masalada hayotiy haqiqat aks ettiriladi;
- c) o'quvchilarda matematik tilni shakllantiradi. O'quvchi istalgan matematik ifoda, topshiriq, matnga qarab uning talabini sharhlab bera oladigan bo'ladi;
- d) o'quvchida mantiqiy tafakkur rivojlantiriladi;
- e) istalgan masala tarbiyaviy ahamiyatga ega. U hayot taraqqiyoti dinamikasini ochib beradi;
- f) masala yechish jarayonida o'quvchilarda fanga nisbatan qiziquvchanlik mustaqillik va erkin fikrlash uyg'onadi;
- g) istalgan arifmetik masala nazariya bilan amaliyotini bog'lash borasidagi asosiy vositadir;
- h) masala yechish jarayonida o'quvchilarda ijodiy fikrlash shaklanadi, hayotiy voqelikni tassavvur qila oladi;

Yuqorida qayd etilganlarning boshlang'ich sinflar uchun ahamiyatini to'ldirib, arifmetik masala deganda shunday savolni tushunmoq kerakki, masala shartida berilgan sonni faktlar

ustida arifmetik amallar bajarilib undagi noma'lum topiladi, deb ta'rif berish mumkin. Masala savoliga javob uni yechib topiladi. Yechish deganda masalada berilganlar bilan izlanayotgan miqdor o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash tushuniladi.

Shu munosabat bilan istalgan arifmetik masalani uch qismga bo'lish mumkin:

1. Masalaning sharti bilan.
2. Undagi sonli faktlar.
3. Masalaning savoli

Yuqorida keltirilgan barcha argumentlar boshlang'ich sinfda matematika o'qitishda o'qituvchi, arifmetik masalalar yechishga jiddiy e'tibor bilan qarashi kerakligini va maktabda butun matematika kursini o'zlashtirish ishi arifmetik masalalarga qaratilib ko'rilishi zarurligini ko'rsatadi.

Shunday savol tug'iladi, arifmetik masala bilan misol o'rtasida qanday farq bor?


Misol bu sonli ifoda bo'lib, unda amallar va ularning bajarilish tartibi amal belgilari orqali berilgan bo'ladi. Ammo har qanday sharti, sonli faktlari va savoli bo'lgan matn masala bo'la olmaydi. Bunda ham o'ziga xos talablar mavjud.

Masala o'z mazmuni bilan o'quvchilarga yaqin va tanish bo'lib, u o'quvchini o'rab olgan hayot voqealarini o'zida aks ettirishi kerak. Tuzilishi jihatdan oddiy, tushunarli, iloji boricha qisqa matnli bo'lishi kerak.

Sonli faktlar hayotiy, real, imkoniyat chegaramizga sig'adigan, mantiqan to'g'ri tanlangan va taraqqiyot dinamikasini ochib beradigan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qilganimizda 1-sinfning ikkinchi yarim yiligidan boshlab, har bir darsda hech bo'lmaganda bir yoki bir necha masalaga duch kelamiz. Masalalarni o'quvchilarga tushuntira olish o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi esa kuchli bilim va metodik mahoratga ega bo'lgan, bolalarni chin dildan sevuvchi inson bo'lishi kerak

Masala tuzish ishi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ancha murakkabligini unutmaslik kerak. Chunki bolalar masala tuzayotganda kerak bo'lgan miqdorlar sonini, ularni bir-biriga bog'lashni hali yaxshi bilishmaydi. Masalaga savol qo'yishda qiynalishadi. Shuning uchun avval o'qituvchining o'zi masalaning qanday yuzaga kelishini amaliy tarzida tuzib ko'rsatadi. 1-sinf matematika darsligi (2021 yil 29-bet 2-bob 16-dars) "+" , "-" , "=" belgilarini o'rgatishda rasmga qarab masala tuzish va uni tushuntirish jarayonida masalaga oshkormas holda to'qnash keladi, shu o'rinda o'quvchilarni masala tuzishga o'rgatila boshlanadi.



1-rasm.

1. Masalan, I sinfda noma'lum qo'shiluvchini topishga doir masala "Stolda 9 ta daftar turibdi. 5 tasi katakli daftar, qolganlari esa bir chiziqli daftar. Nechta daftar bir

chiziqli?” yechilsa, unda o’quvchilar ko’z o’ngida shunga o’xshash quyidagicha masalani tuzib ko’rsatish mumkin.

O’qituvchi stoliga bir qancha daftar qo’yadi. Bir o’quvchiga shu daftarlar ustiga yana ikkita daftar qo’shishni aytadi. So’ngra hamma daftarlar sanaladi va oldin stol ustida nechta daftar bo’lganligini aniqlash maqsadida masala tuziladi va yechiladi. Yoki noma’lum kamayuvchini topishga doir masala “Zarinada bir nechta daftar bor edi. U o’rtog’iga ikkita daftarini berganidan keyin uning 9 ta daftari qoldi. Zarinada nechta daftar bo’lgan?” yechilgach, noma’lum ayriluvchini topishga doir “Do’konda 20 dona changyutgich bor edi. Bir nechta changyutgich sotilgan keyin 9 ta changyutgich qoldi. Nechta changyutgich sotib yuborilgan?” Keyinchalik rangli rasmlar yuzasidan masalalar tuzish, tuzdirish orqali bu kabi ijodiy ishlar kengayib boradi. Masala tuzish uchun rasmlarda berilgan ma’lumotlar o’quvchilarga ancha tanish bo’lib, bunda o’quvchilarning asosiy vazifasi rasmini”o’qib” unga savol qo’yishdan iborat bo’ladi..

2. Masalalar tuzishda bolajonlarni mehnatsevarlik va tabiatni sevishga o’rgatish, kasbga yo’naltirish maqsadida 134- betdagi 2- masala



2-rasm.

Bu masalani yechish orqali o’quvchini gullarni sevish, parvarish qilish- mehnatsevar ruhida tarbiyalash bilan birga tabiatni asrashga o’rgatiladi. Bu ko’rinishdagi masala yechilgach, darhol sinf hayotidan shunga o’xshash masala tuzishhilarni talab qilish o’quvchini anchagina ijodiy fikrlahsga majbur qiladi.

3. Matematikani hayot bilan bog’lashda predmetlar aro bog’lanish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, tabiatshunoslik darslarida hosil qilgan gorizont tomonlari bo’yicha mo’ljal ola bilish malakalarini mustahkamlash maqsadida ushbu mazmundagi harakatga doir masalalarni yechtirish va tuzdirib yechtirish mumkin.

Aeroportda bir vaqtda g’arbiy va sharqiy yo’nalishda 2 ta samolyot uchdi. Ulardan birining tezligi soatiga 600 km, ikkinchisi esa 720 km. 3 soatdan keyin samolyotlar bir-biridan qancha uzoqlikda bo’lgan?

Yoki qishloq xo’jaligi materiali asosida ham ko’plab masalalar tuzish mumkin.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari har bir ishga sidqidildan yondashib, havas bilan kirishadilar, lekin ular o’z faoliyatlarida ba’zi bir qiyinchiliklarga duch kelib ishning uddasidan chiqa olmasalar, ularning qiziqishi keskin pasayib ketishi mumkin. Natijada o’quvchilarda o’z qobiliyatiga ishonmaslik, loqaydlik kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.

Bunday holatlarni oldinini olish uchun o’qitish metodlaridan mahorat bilan foydalanish va o’quvchilarga nisbatan samimiy munosabatda bo’lishi kerak.

Ishni shunday tashkil etmoq kerakki o’quvchi har bir bajarayotgan ishidan qoniqib,, quvonib xursand bo’lsin. Shuning uchun ham ishga ijobiy yaqinlashib dars paytida turli matematik materiallardan, matematik maqol va topishmoqlardan unumli foydalanish kerak.

Ayniqsa, ijodiy fikrlashga qaratilgan o’yinlardan foydalanish har bir boshlang’ich sinf o’qituvchsining ishchanligiga, ijodkorligiga bog’liqdir.

Masalan, Anvar o’rdak bilan qo’ylarni boqib yurar edi. Vali undan:”Sen nechta o’rdak va qo’y boqib yuripsan?”- deb so’radi. “hamma o’rdak va qo’ylarning boshlari 30 ta, oyoqlari esa 84 ta. Qani o’zing o’ylab ko’r-chi?”-dedi Anvar. Lekin Vali topa olmadi. Qani bolajonlar siz Valiga yordam bering-chi?(Anvar 12 ta qo’y va o’rdak boqib yuribdi).

Masalalar yechishga ijodiy yaqinlashishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

1. Tayyor shart asosida masala tuzib yeching.

Bor edi – 30 ta va 9 ta konfet

Olindi – 26 ta konfet

Qoldi - ?

2. Ifodalar bo'yicha masalalar tuzib yechish.

a) $32:4+32$

b) $(32-4)+32$

3. Jadval bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching.

	Bor edi	Jo'natishdi	Qoldi
	40 ta yashik	?	15 ta yashik
	?	23 ta yashik	8 ta yashik
	100 ta yashik	52 ta yashik	?

I. O'quvchilar sodda arifmetik masalalar yecha boshlagandan boshlab, teskari masala to'g'risida dastlabki tushunchaga egalar. Masalan, jadval asosida to'g'ri va teskari masala tuzib yeching.

	1 ta yashikdagi olmaning og'irligi	Yashiklar soni	Hamma yashiklarning og'irligi
	6 kg	3 ta	?
	6 kg	?	18 kg
	?	3 ta	18 kg

Jadvalda tasvirlanganidek, har bir soda masaladan 2 ta teskari masala tuzish mumkin. Bunda teskari masalalarning soni, amaldagi komponentlari sonidan kelib chiqadi. Murakkab arifmetik masalalar to'g'rida gapirganda teskari masalalar soni masalada berilgan sonli faktlar miqdoridan kelib chiqadi. Chunki birinchi berilgan to'g'ri masalani yechib, uning javobini kelgusi masalalarda ishlatish, har bir berilgan sonli faktni noma'lum deb olib, teskari masala tuzish va uni yechish mumkin.

Teskari masalalar tuzib, uni yechish o'quvchiga zavq bag'ishlaydi. Oldingi masalani to'g'ri yechganiga ishonch hosil qildiradi. O'z qobiliyatiga tayanib ish qilishga undaydi, fanga qiziqishi oshadi. Fikrimizni quyidagi masala bilan asoslaymiz:

Ombordan magazinga har birida 6 kgdan olma bo'lgan 4 yashik va 8 kg nok bo'lgan 1 ta yashik jo'natildi. Hammasi bo'lib necha kg meva jo'natilgan?

Ushbu masalaga qisqacha shartni tuzamiz:

Olma -6kgdan 4 yashik

Nok- 8 kgdan 1 yashik

Hammasi- ?

Yechim: $6*4+8*1=24+8=32$ kg

Javob: 32 kg.

1-teskari masala quyidagicha bo'ladi:

Olma -? 4 yashik

Nok -8kgdan 1 yashik

Hammasi- 32kg

Qisqa shartga ko'ra bolalarga masala tuzish taklifi kiritiladi va shu taklif asosida bolalar

1-teskari masalani tuzadilar. Bu teskari masalaning yechimi quyidagicha: $(32-8*1):4=6$ kg.

2-teskari masala:

Olma - 6kg , 4 yashik

Nok - ? 1 yashik

Hammasi- 32 kg

Yechish: $(32-6*4):1=8$ kg

Javob: 8 kg.

3-teskari masala:

Olma- 6kgdan ? yashik

Nok - 8kgdan 1 yashik

Hammasi - 32 kg

Yechish: $(32-8*1):6=4$

Javob: 4 yashik

4 –teskari masala:

Olma – 6 kgdan 4 yashik

Nok – 8kgdan ? yashik

Hammasi 32 kg

Yechish: $(32-6*4):8=1$

Javob: 1 yashik

Masalalarga nisbatan bunday yondashish o'quvchilarga matematik tilni rivojlantiriladi, ularda nutq madaniyatini o'stiradi. O'quvchilar bir masaladan bir necha masala matnini tuzadi va uni yechadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova, M. M., & Kasimov, A. A. (2021). On some typical problems to be solved in primary schools. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 502-517.
2. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2021). Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar. *Scientific progress*, 2(6), 1138-1145.
3. Qosimova, M. M., & Usmonova, Z. U. (2022). Boshlang 'ich sinfda matematika o 'qitish jarayonida o 'quvchilarda tejamkorlik ko 'nikmasini tarkib toptirish. *pedagogs jurnali*, 1(1), 75-77.
4. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). Matematikadan ijodiy o 'quv topshiriqlarining metodik xususiyatlari. *boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali*, 2(2), 206-211.
5. Kasimov, F. M., & Qosimova, M. M. Technology of work on comparison tasks.
6. Qosimov, M. F., Kasimov, A. A., Qosimova, M. M., Kasimov, F. F., & Idiyev, A. AJMR.
7. Qosimova, M. (2020). Taqqoslashga doir topshiriqlar ustida ishlash texnologiyasi: taqqoslashga doir topshiriqlar ustida ishlash texnologiyasi. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 2(2).
8. Qosimova, M. (2020). On some typical problems to be solved in primary schools: on some typical problems to be solved in primary schools. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
9. L.O'rinbayeva va boshqalar 1-sinf matematika darsligi T.2021
10. L.O'rinbayeva va boshqalar 2-sinf matematika darsligi T.2021
11. L.O'rinbayeva va boshqalar 3-sinf matematika darsligi T.2022

REZYUME

Bu maqolada boshlang'ich o'quvchilariga arifmetik masalalarni yechishga o'rgatishning usullari yoritilgan

РЕЗЮМЕ

Работа над арифметическими задачами в начальных классах составление и решение творческих задач учащимся является объектом данной статьи

SUMMARY

The work with ariphmetic tasks in initial classes, drawing up and decision of creative tasks by the pupils is object of given clause.